

OILA — MA'NAVIY QADRIYATLARNING QUDRATLI MANBAI

H.X.Ashirmatov
JDPI, Falsafa TXT kafedrası katta
o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila, uning tarkibiy qismlari, uning jamiyat hayotidagi roli va o'rni, ahamiyati xususida to'xtalib o'tilgan. Oila kategoriyasiga ta'riflar keltirilgan. Jamiyatning barqaror taraqqiyotida oilaning o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, taraqqiyot, ijtimoiy muhit, oila yili, ma'naviy qadriyatlar.

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется семье, ее составляющим, ее роли и месту в обществе. Есть определения категории семьи. Подчеркивается роль семьи в устойчивом развитии общества.

Ключевые слова: Семья, общество, развитие, социальная среда, семейный год, духовные ценности.

Annotation. This article focuses on the family, its components, its role and place in society. There are definitions for the family category. The role of the family in the sustainable development of society is highlighted.

Keywords: Family, society, development, social environment, family year, spiritual values.

Mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lidan borayotgan O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonida uning yaxlitligini kafolatlovchi oila institutini mustahkamlash borasidagi davlatning istiqbolga yo'naltirilgan aniq siyosati olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi oila va har bir fuqaroning manfaatini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Oila — kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik xujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm. Oila — kishilarning tabiiy-biologik, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan birlik. Oila Vatan ichidagi Vatanimizdir aslida. Oila — kichik bir mamlakatdir. Uning muhofazasi esa, davlat himoyasidadir. Huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida oila alohida muhim funktsiyalarni bajaradi. Eng avvalo, u komil insonni kamol toptiradi, ijtimoiy qadriyatlar va milliy an'analarni avloddan avlodga o'tkazishda asosiy zanjir vazifasini o'taydi. Har bir inson oila bag'rida kamol topadi. Shunday ekan, oilada farzand tarbiyasi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar tarbiyasi muhim sanaladi.

Oila masalasi mustaqil O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, birinchidan, O'zbekiston aholisining deyarli yarmi — maktabgacha va maktab yoshidagi bolalardir. Ikkinchidan, sog'lom avlod o'stirish — kelajagimiz garovidir. Oila — ma'naviy qadriyatlarning qudratli manbaidir. Chunki istibdod yillarida taqiq ostida bo'lgan bir qancha oilaviy qadriyatlar mustaqillik sharofati bilan bugungi kunda tiklanmoqda. Masalan, tarixan tashkil topgan hovlining tashqi va ichki hovliga bo'linishi — xalqning milliy ruhini, iymonu e'tiqodini, toatu

ibodatini aks ettirgan. Hovlilarning ichki-tashqiga bo'linishi ayollarda farosat va malohat tuyg'ularini shakllantirishga, farzandlarning har xil odamlar nigohidan yiroqroq bo'lishiga, ortiqcha gap-so'zlarni eshitmaslikka, kattalarning ishiga aralashmaslikka imkon bergan. Ayniqsa, bu milliy odat to'y va azalarni o'tkazishda katta qulayliklar tug'dirgan. Yevropa madaniyatining ba'zida ko'r-ko'rona targ'ib qilinishi oilaviy tarbiyada ham o'z aksini topdi, tarbiyaviy ta'sirning o'jizlanishiga va ma'naviy qashshoqlanishga yo'l ochdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qaerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman, — dedi u".

Yoshlar aziz bo'lganidek, uning odobini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlar hayot faoliyatidagi muhim milliy va ma'naviy qadriyatlarni bevosita oilada oladi. Shuning uchun yoshlar tarbiyasi haqida gap ketganda avvalo, bu borada ota-onaning bola oldidagi obro'si, namunasi oiladagi urf-odatlar, rasm-rusumlar an'analar naqadar muhim axamiyat kasb etadi. O'zbek milliy urf-odatlariga ko'ra ko'pincha yoshlarning tabiatiga baho berilganda, avvalo, uning ota-onasi, bobo- buvilaridagi mavjud bo'lgan hislatlariga xos qilib tarbiyalash zarur.

Chunki yoshlarning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Yoshlarning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas qadriyatlarimizning dastlabki poydevori oila sharoitida qaror topadi. "Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilada avlod tarbiyasi, oiladagi muhit, an'anaviy tarbiya bilangina emas, shu bilan birga oila iqtisodi, uning moddiy sharoiti bilan ham bevosita bog'liqdir".

E'tirof etish joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda oila institutini amalda mustahkamlash borasida talay ijobiy ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998 yilda qabul qilingan "Oila kodeksi"da ushbu munosabatlarning barcha jabhalari reglamentatsiya qilingan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan boshqa qator kodeks va qonunlarda ham bevosita oila a'zolarining, jumladan, xotin-qizlar va bolalarning manfaatlari himoya qilingan.

Darhaqiqat, oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Oila jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina

o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi. Shu bois ham inson manfaatlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosat har tomonlama ushbu muqaddas go'shani mustahkamlashga qaratilgandir.

Oilaning huquqiy maqomi ham ushbu mas'uliyatli vazifalarni bajarishni ta'minlashi lozim. Shu sababli ham yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi maxsus ravishda oilaga bag'ishlangani bejiz emas. Unda oila davlat muhofazasida ekanligi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazmuni, voyaga yetmaganlar to'g'risida jamiyat g'amxo'rliqi alohida ta'kidlanadi. Ushbu konstitutsiyaviy normalar 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Oila Kodeksida har tomonlama va batafsil chuqurlashtirildi va mustahkamlandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan boshlab, har yili 15 may kunini Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qildi. Har yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammosi umuminsoniy vazifa ekanligi e'tirof etilmoqda.

Istiqlol yillarida oila mustahkamligiga erishish, xususan, jamiyatda oilaning o'rnini mustahkamlash borasida olib borilgan ishlar, onalar va bolalar salomatligi masalalari, kelajak egalari bo'lgan yoshlar tarbiyasida oilaning o'rni, voyaga yetmaganlar tarbiyasi muhim masala ekanligi hamda oilaning ham yoshlar, ham kattalarning ma'naviyatli bo'lishlari, muhim milliy qadriyatlardan bahramand bo'lishlari uchun hukumatimiz tomonidan ijtimoiy kafolatlangan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" asarida jamiyatning asosiy negizi bo'lgan oila, yoshlar tarbiyasi, insonparvarlik, vatanparvarlik haqida to'xtalib: "Oila jamiyatimizning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tarbiya bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa, eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir" – deydi va mustaqil o'zbek davlati — xalqimizning tarixiy yutug'i ekanligini aytib, shu davlatda yashayotgan inson, oila boshliqlarining oldida turgan asosiy vazifalarni ko'rsatib beradi. "Har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir".

«Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat

qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!», — deya ta'kidlagan O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev .

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, jamiyat hayoti uchun har tomonlama barkamol kadrlarni tayyorlab, yuksak zakovatli, intellektual salohiyatli shaxslarni shakllantiruvchi eng qadimiy tarbiya o'chog'idir.